

TURKIY XALQLARNING TABIAT KULTLARIGA MUNOSABATI

Boboxo'jayev Ilhom Sultanovich

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

ОТНОШЕНИЕ К КУЛЬТАМ ПРИРОДЫ ТУРЕЦКОГО НАРОДА

Бобохожаев Илхом Султонович

Базовый докторант Термезского государственного
университета

TO THE NATURE CULTS OF THE TURKISH PEOPLE ATTITUDE

Bobokhojaev Ilhom Sultanovich

Doctoral student of Termiz State University



Tel.: +998 93 635 71 55

e-mail:

[boboilhom5@gmail.
com](mailto:boboilhom5@gmail.com)

Orcid: 0009-0001-
4179-1588

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan mayjud bo'lgan, tabiat bilan insonlarni bog'lab turuvchi kultlar, ibodatlar bilan bir qatorda, Surxon vohasi aholisiga oid bo'lgan urf-odat va marosimlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: "Avesto", "Sust xotin", ot kulti, Sayrob, Panjob, ko'zmunchoq, isiriq, chaqirkonak.

Аннотация: В данной статье, наряду с культурами и молитвами, издавна существовавшими у народов Средней Азии, связывающими человека с природой, рассматриваются обычаи и обряды, связанные с жителями Сурханского оазиса.

Ключевые слова: «Авеста», «Суст Хотин», культ коня, Сайроб, Пенджаб, зрелища, благовония, призвание.

Annotation: In this article, along with the cults and prayers that have long existed among the peoples of Central Asia, connecting man with nature, the customs and rituals associated with the inhabitants of the Surkhan oasis are examined.

Keywords: "Avesta", "Sust Khotin", horse cult, Sairob, Punjab, spectacles, incense, calling.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ)

INTRODUCTION. E'tiqod ishonmoq tuyg'usidir. Ishonmoq tuyg'usi insoniyatning eng teran va ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridandir. Zardushtylarning manbasi "Avesto"da "din" sifatida "daena", qadimgi fors pahlaviy tilida "den", "din", "dena", "daena" so'zi ishlatilib, «yo'l», «mazhab», «marosim», «uslub», «tarz» kabi ma'nolarni bildirgan [1].

Yerning muqaddasligi va hayvonot dunyosining ayrim turlarini, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni asrashni rag'batlantiradigan qadriyatlar, tabiat bilan insonlarni bog'lab turuvchi kultlar, ibodat, urf-odat va marosimlar (yil boshi "Navro'z", bahorni kutib olish bilan bog'liq "Boychechak", ekin ekish va hosil yig'ish chog'idagi mehnat jarayonlari "Shox moylar", "Qo'sh haydash", "Mayda", "Oblo baraka",

quyosh chiqishi bilan bog'liq "Oftob chiqdi", yomg'ir yog'dirish bilan bog'liq "Sust xotin", qor yog'ishi bilan bog'liq "Qor keldi", shamol chaqirish bilan bog'liq "Choy momo", "Shamol chaqirish" yoki "Mirhaydar" va hokazo) orqali ifodalananadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA

METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Qadim zamonalardan beri insoniyat tabiat bilan munosabatlarini o'zaro noziklik asosida bir-birlariga chuqur hurmat tuyg'usida qurishgan. Turkiy xalqlarning qadimdan tabiatga munosabatini osmonga, yulduzlarga, quyoshga, tog'u-toshlarga, o'simlik dunyosiga va suvgaga o'zgacha yondashganini, ajdodlar ruhlarini hurmat qilish hamda hayvonlarni muqaddaslashtirish (masalan, otga bo'lgan munosabat, ona bo'ri) kuzatiladi.

Jumladan, tabiatga mehr, jonzotlarga insoniylik tuyg‘usi bilan qarash, xususan, ot insonni yo‘ldoshi, hayvonlar ichida vafodori, qo‘riqchisi, qiyin vaziyatlarda suyanchig‘i, janglarda madadkori, yigitning or-nomusini saqllovchi, himoyachisi, dushmanqa qarshi nafrati ekanligi dostonlarda kuylab o‘tilgan. Umuman, ajabtovur otlar, xususan Alpomishning Boychibori, Alining Dul-duli kabilarni misol keltirish mumkin. Shuningdek, el orasida otning yolini uy to‘riga ilib qo‘yish, otning yolini ins-jinslarga qarshi kurashish maqsadida isiriqqa qo‘shib tutatish, chaqaloqning ilk ko‘ylagini otning qozig‘iga kiydirib olish, otning oxuridan zaif va kasalmand bolalarni aylantirib olish, otning xurjuniga solib olish yoki otning egarining ostidan o‘tkazish kabi holatlar **ot kulti** bilan bog‘liqidir [2].

Ona zaminga e’tibor, oilani rizq-nasibasi, sevgi-vafosini himoya qilishda otning o‘rni beqiyos ekanligi ko‘pkari timsolida dostonlarda ifoda etilgandir. Ko‘pkari Vandob, Darband, Sayrob, Panjob, Laylagon, Egarchi, Chig‘atoj, Boybuluoq, Istara, Jaloir, To‘da, Chorbog‘, Beshqo‘ton, Poshxurt, Qorabog‘, Zarabog‘, Sina, Sangardak, Bog‘lidara, Olatemir, Jobu, Kakaydi, Bandixon, Toshliyurt, Chilonli, Tangidara, Qorluq, Xo‘jamulk, Besherkak, Zang, Bedak, Kalapo‘shqiya, Talloshqon, Katta Xatak, Kallamozor, Zarautsoy, Xo‘ja Anqo ota nomli kabi qishloqlarda milliy xalq o‘yinlari sifatida qadrlanib kelgan va shu asosda turli xil rivoyat va dostonlarda o‘z aksini topgan. Jumladan, to‘rt aka-uka Ko‘chak, Sher, Baymoq va Xidirlar o‘z ot va yilqilarini yo‘qotib qo‘yib, ularni izlab tog‘ma-tog‘ oshib kelib ularni Bog‘li daradan topishadi. Bu so‘lim, go‘zal, sero‘t tog‘ oralig‘idagi osuda, har tomonidan tog‘lar bilan o‘ralgan oromgoh go‘sha ularga yoqib qolib ko‘chib kelishgan. Ularning qariyb to‘qqizinchiligi avlodni bu yerlarni obod qilib, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanib kelishgan.[3].

Xususan, bo‘ri ham turkiylarda muqaddas hayvon sifatida ilohiyashtirilgan, aynan bo‘rining tishi, tirnoqlari, terisi yovuz kuchlarga qarshi kurash vositasi hisoblangan. Hatto, ona allasidagi qo‘shiqlarda ham uyg‘a, bola beshigiga, uning kiyimiga tumor sifatida taqib qo‘yilgan. Bo‘ri bolasi qo‘lga o‘rgatilib, ayrim joylarda ekin va paykallar hamda suruvlarning oralariga baraka keltiruvchi ramz sifatida olib borilgan. Aynan bo‘rining juni ham ot yoli singari isiriqqa qo‘shib tutatilgan va bu bilan

yovuz kuchlar haydalgan. Ko‘pincha bolalarni yoshlik paytida vafot etib ketayotgan, ya’ni bolasi turmayotgan ota-onalar bolalarini o‘lgan bo‘rining og‘zidan o‘tkazib olganlar. Ya’ni, bo‘rining og‘iz qismi kesib olinib, terisi iyangan va shundan chaqaloq uch bora o‘tkazilgan. Bunday bolalarga Eshbo‘ri, Qurbo‘ri, Bo‘ritosh, Bo‘rixol, Bo‘ri va Bo‘riboy kabi ismlar qo‘yilgan [2].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Bundan tashqari, ishning xayrli bajarilishi ham bo‘riga mengzalgan. Ya’ni, oilada o‘g‘il bola tug‘ilsa “bo‘ri bo‘ldi” iborasi, yoki, sovchining quda tomonidan olgan rozilik javobini eshitish uchun sovchidan bo‘rimi, tulki deb so‘ralganda, agar ish silliq ko‘chgan bo‘lsa, bo‘ri deb javob berilgan. Biror kattaroq yumush ado etilsa, bu ish ham “bo‘ri bo‘ldi” deb javob qaytarilgan. Ko‘rinib turibdiki, qadimgi turkiylarda ot va bo‘ri murodga yetish timsoli sanalgan. Xalqimizda uzoq muddat farzand ko‘rmagan eru xotinga bo‘ri tishlagan, bo‘ri hamla qilgan, bo‘ri yaralagan qo‘y yoki echki go‘shtlarini yedirish, iste’mol qildirish odad bo‘lgan. Shuningdek, qo‘y ham xuddi shunday baraka timsoli sifatida, ya’ni paykallarda, bog‘lar tepasida qo‘chqor shoxini ilib qo‘yish, qo‘y kalla suyagini ilib qo‘yish kabi holatlar ham go‘yoki baraka timsoli sanalgan. Hatto, Surxon vohasi amaliy bezak san’atida ham g‘amni haydovchi, kirnasuqlarni daf etuvchi sifatida qo‘chqor shoxi “Qo‘chqorak” gul singari timsollar bo‘lib, bunday timsollar, zardevol va so‘zanalarning bezagi bo‘lib qolmasdan, balki yovuz kuchlar, yomon nazarga qarshi kurash vositasi sifatida qo‘llanilgan [2].

Muqaddas daraxtni ulug‘lash odati o‘zbek xalqining muayyan qarashlari bilan ham bog‘liq. Xususan, yomon nazarga kurash timsoli sifatida tug‘dona daraxtidan yasalgan tumorlar, ko‘zmunchoq, isiriq, qalampir va chaqirtikon kabi buyumlar yovuzlikka qarshi kurash vositasi sifatida xizmat qilgan. O‘simplik dunyosi, daraxtlar tiriklik timsoli. Chinor, archa uzoq umr ko‘radigan daraxtlardir. Boysun tumanidagi Sayrob chinoriga nisbatan ham aholi orasida ehtiyyotkorona munosabat va uni e’zozlash bilan bog‘liq diniy-ekologik qarashlar shakllangan. Bu daraxt tabiat yodgorligi sifatida davlat qaramog‘iga olingan. Chinorning yoshi 950 yilga yaqin [4]. Qadim zamonlardan osmon unsurlariga, quyoshga, yulduzlarga, oyga sig‘inish bejiz emas. Xususan, yangi oy chiqqanda.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). E'tiqodiy qarashlarda har bir hayvonning o'ziga xos ruhi bo'lgan, ya'ni homiy kultlari. Otlarning homisi - Qambar ota, qoramol - Zangi bobo, tuyalar - Oysul ota, qo'ylar - Cho'pon ota va boshqalar. Mozorlarga sig'inish islomgacha bo'lgan g'oyalardan, uyg'unlashib, musulmonlar kultiga aylanib bordi. Ya'ni, O'rta Osiyo xalqlariga xos bo'lgan va ko'plab turkiyzabon xalqlar orasida yaqin-yaqingacha mavjud bo'lgan keng qadimiy e'tiqodlarning mahalliy ko'rinishi sifatida qarash mumkin. Mozorlarga hayvonlarning suyaklari va bosh suyaklari, tog' echkisining shoxlari, archalarning shoxlari qo'yilgan. Daraxtlarga mato parchalari va boshqalar osilgan. Mozorlar atrofida har qanday tabiiy ofat munosabati bilan yoki bayramlarda Ollohdan so'rab qurbanliklar keltirilgan. Ziyoratgohlarga xos yana bir narsa shundaki, uning hududida biror qadimiy daraxti yoki buloq mavjuddir. Masalan, Oltinsoy tumanidagi Xo'jasoat qishlog'i chekkasida joylashgan Qurbon Soat ziyoratgohida (XVII a.) qadimiy azim tut daraxti o'sadi. Bu joy XVII asrning o'rtalarida yashagan islom ilmining bilimdoni Qurbon o'g'li Soat dafn etilganligi sababli Qurbon Soat ostonasi deb atalgan [5].

Inson tabiatni asosan kuzatish orqali o'rgandi. Tabiatdagi hamma narsaning bir-biriga bog'liqligi xalq donishmandligiga sabab bo'ldi va ekologik tarbiyani shakllantirdi. Masalan, "Suv – hayot manbai", deb suvni asrab-avaylash kabi g'oyalalar o'sdi. Surxon vohasi aholisining tabiat unsurlariga nisbatan ehtiyotkorona munosabati va ularni e'zozlash bilan bog'liq qarashlar xalqimiz orasida "qadamjo", "aziz joy", "muqaddas qadamjo" kabi nomlar bilan ataladi. Bunda odamlar asosan, shifo izlab, iltijo qilish bir qatorda muqaddas obyektdan davolovchi kuchni olish maqsadida ma'lum harakatlar va marosimlar (buloq suvlaridan ichish, cho'milish, toshni tavof qilish, atrofini aylanib niyat qilish, tosh ustida yotish, daraxtlarni quchoqlash, mato bog'lash, niyat qilish, suvga tanga tashlash) bajariladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Surxon vohasi tabiatni, iqlimi va joylashuv geografiyasining qulayligi bois tabiat kulti bilan bog'liq tabiat yodgorliklari, bahaybat va qadimiy daraxtlar, tosh hamda suv manbalari, bahaybat tog'lar bag'ridagi ulkan g'orlar, chuchuk suv manbai bo'lgan mo'jizaviy buloqlar kabi g'ayrioddiy tabiyy

majmualardan iborat. Keyinchalik islom dinining qabul qilinishi kishilar ongida tabiatga bo'lgan ehtiyotkorona munosabatni yanada kuchaytirdi. Qur'oni Karimda musulmonlarning tabiatga bo'lgan alohida munosabati ko'rsatiladi: "Yerda hayvon ham, osmonda qush ham yo'q, senga o'xshagan mavjudotlar bor va ularning hammasi Alloha qaytar" (Qur'on, 6.38). Shuningdek, suv va suv manbalarini ifloslantirmang, zero, eng yaxshi ichimlik suvdir hadisiga amal qilgan holda mahalliy aholi suvni ifloslanish va kamayishdan himoya qilish maqsadida buloqlar, ko'llar va daryolarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lgan. Bugungi kunda mamlakatimizda atrof-muhitga oid ko'plab qonun va qoidalar mavjud. Ammo, xalq ongida tabiatga ehtiyotkorona munosabat tuyg'usini azaliy urfatotlar, maqol, ertak, dostonlarni qayta tiklash, targ'ib qilish orqali erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Dinshunoslik asoslari. (Mas'ul muharrir: I.Usmonov) – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2013. – B. 7-8.
2. Ahmedova G. O'zbekistonning janubiy hududlarida baxshichilik an'analarining etnomadaniy jarayonlarga ta'siri (XIX asrning ikkinchi yarmi XXI asr boshlari). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. Termiz, 2022. – B. 113-114.
3. Tursunov S.N., Pardayev T.R. "O'zbekistonda baxshichilik san'atining shakllanishi va taraqqiyoti tarixi". "Tafakkur", 2015.
4. Dala yozuvlari. Boysun tumani, Sayrob qishlog'i. 2022.
5. Pardayev M. Oltinsoy ziyoratgohlari. Ona qishlog'im. – B. 27.
6. Ruzieva, M. A. (2020). NATIONAL POTENTIALS OF UZBEKISTAN. Теория и практика современной науки, (6 (60)), 26-30.
7. Rozieyva, M. (2024). ETHNOGENESIS AND ETHNIC HISTORIOGRAPHY OF CENTRAL ASIAN GYPSIES. Journal of Modern Educational Achievements, 3(1), 236-242.